Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 94
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

O'ZBEKISTON HUDUDIDA HARBIY DIPLOMATIYANING SIYOSIY VA TARIXIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI: AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MISOLIDA

Xurshed Toshqulovich Mirzayev*
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ xurshedmirzayev3@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda Amir Temur, Temuriylar va Zahiriddin Muhammad Bobur davlatida harbiy diplomatiyaning rivojlanish tarixi va transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Mazkur tarixiy bosqichlarning harbiy hamda siyosiy jihatlari alohida tasniflanib, ularning mustaqil O'zbekiston harbiy diplomatiyasining shakllanishidagi konseptual o'rni asoslab berilgan.

Kalit so'zlar

harbiy diplomatiya, diplomatik manyovr, harbiy razvedka, harbiy-siyosiy ittifoq, tashqi siyosat, elchilik munosabatlari, Amir Temur, Temuriylar, Bobur.

DOI: 10.5281/zenodo.21743115

KIRISH

Harbiy diplomatiya zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida davlat milliy xavfsizligini ta'minlash va tashqi siyosiy faoliyatining muhim institutlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston hududida harbiy diplomatiya mustaqillikka erishilganidan so'ng siyosiy institut sifatida shakllangan bo'lsa-da, uning tarixiy ildizlari mamlakat hududida mavjud bo'lgan davlatchilik an'analari bilan uzviy bog'liqdir. Ammo, harbiy diplomatiyaning tizimli va konseptual namunalari o'rta asrlar va undan keyingi davrlar davlatchiligi – ayniqsa, Amir Temur, Temuriylar hamda Bobur davrida yaqqol namoyon bo'lgan. Ushbu davrlarda to'plangan tajriba, keyinchalik mustaqil O'zbekiston Respublikasi harbiy diplomatiyasining shakllanishi uchun o'ziga xos tarixiy-madaniy zamin vazifasini o'tagan.

Biroq, milliy tarixshunoslik va siyosiy fanlarda mustaqillikka qadar bo'lgan davrda O'zbekiston hududida amalga oshirilgan harbiy-diplomatik munosabatlar tizimli va kompleks tarzda **tadqiq etilmagan.** Ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirish, tarixiy faktlarni zamonaviy siyosiy konsepsiyalar prizmasi orqali tizimli tahlil qilish mazkur tezisning **dolzarbligini belgilab beradi.**

Tarixiy manbalarning tizimli tahlili XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyo geosiyosiy makonida faol harbiy-diplomatik strategiyalar qo'llanganini isbotlaydi.

Jumladan, XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda Markaziy Osiyo hududida markazlashgan Temuriylar davlatining geosiyosiy maydonga kelishi mintaqadagi harbiy-diplomatik amaliyotni sifat jihatidan mutlaqo yangi – global darajaga ko'tardi. Amir Temur xalqaro munosabatlarni olib borishda harbiy qudrat va diplomatik vositalarni bir-birini to'ldiruvchi yagona strategik tizim sifatida qo'llagan.

Zamonaviy harbiy diplomatiya nazariyasidagi "**urushning oldini olish yoki raqibni urushdan oldin zaiflashtirish uchun diplomatik muhit yaratish"** konsepsiyasi Sohibqiron strategiyasining o'zagini tashkil etgan.

Xususan, 1391 va 1395 yillarda Amir Temur Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga qarshi harbiy yurishlari arafasida mutlaq g‘alabaga erishish uchun avval diplomatik maydonda strategik ustunlikka erishishga harakat qilgan. U Kavkaz, Eron va Yaqin Sharqning boshqa hukmdorlari bilan faol diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yib, ularni o‘z tomoniga og‘dirgan yoki betarafligini ta’minlagan [1, B. 114]. Natijada To‘xtamishxon o‘zining janubiy geosiyosiy ittifoqchilaridan mahrum bo‘lib, xalqaro maydonda yakkalanib qolgan va bu holat Temuriylar qo‘shinining g‘alaba qozonishiga zamin yaratgan.

Amir Temur harbiy diplomatiyasining yana bir strategik yo‘nalishi – Usmonlilar sultoni Boyazid I ga qarshi kurashda Yevropa davlatlari bilan olib borilgan transmintaqaviy hamkorlikdir. Tarixiy manbalarda saqlanib qolgan 1402–1403 yillarda Amir Temurning Fransiya qiroli Sharl VI va Kastiliya qiroli Genrix III bilan almashgan rasmiy maktublari mazmunan savdo aloqalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lsa-da, strategik jihatdan Usmonlilarga qarshi ikki tomonlama harbiy-siyosiy ittifoq uchun diplomatik platforma vazifasini bajargan [2, B. 52].

Sohibqironning Anqara jangidagi (1402 y.) g‘alabasidan so‘ng, Yevropa davlatlari (Kastiliya, Fransiya, Genuya, Venesiya) Amir Temur saroyiga o‘z elchilarini yuborishni kuchaytirdi. Bu tarixiy jarayon Samarqandning nafaqat harbiy, balki global siyosiy-diplomatik muvozanatni belgilovchi markaz sifatida tan olinishini ta’minlagan.

Xususan, Kastiliya elchisi Ruy Gonsales de Klavixoning (1403–1406 yy.) xotiralari Amir Temur davlatida xorijiy elchilarni qabul qilishning o‘ta murakkab va davlat nufuzini namoyish etuvchi harbiy-diplomatik protokol tizimi mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi [3, B. 167].

Sohibqiron vafotidan keyin Shohrux Mirzo davrida (1405–1447 yy.) Xitoydagi Min sulolasi bilan doimiy diplomatik munosabatlar o‘rnatilgan bo‘lib, ular nafaqat savdo, balki siyosiy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan. 1402–1424 yillar oralig‘ida Samarqand, Hirot va Pekin o‘rtasida 20 ga yaqin rasmiy elchilik missiyalari amalga oshirilgan. Ushbu missiyalarda diplomatlar bilan bir qatorda harbiy vakillar va razvedka xodimlari ham ishtirok etgan [4, B. 184].

Chunonchi, 1414-1415 yillarda Samarqandga tashrif buyurgan Xitoy elchisi Chen Chen va 1419–1422 yillarda Pekinga safar qilgan Shohrux Mirzo elchisi G‘iyosiddin Naqqoshlarning safar hisobotlariga ko‘ra, ushbu missiyalar raqib tomonning harbiy salohiyati, garnizonlari joylashuvi va ichki barqarorligi haqida strategik ma’lumot yig‘uvchi harbiy razvedka va tahlil vazifasini ham muvaffaqiyatli bajargan [5, B. 221–332; 6, B. 279].

Temuriylar davlatchilik maktabining davomchisi Zahiriddin Muhammad Bobur faoliyatida harbiy diplomatiya geosiyosiy inqirozlar va cheklangan resurslar sharoitida mamlakatni saqlab qolish va yangi imperiyaga asos solishning bosh vositasi sifatida namoyon bo‘lgan.

Jumladan, 1511 yilda Bobur Eron shohi Ismoil I Safaviy ko‘magida Samarqand taxtini qisqa muddat ichida qaytarib olgan, ya’ni tashqi harbiy yordamdan foydalanib ichki siyosiy maqsadga erishgan. Ammo, ushbu ittifoqning mafkuraviy-diniy omillari (sunniylik va shialik o‘rtasidagi qarama-qarshilik) ichki siyosiy elita tomonidan Boburga qarshi qo‘llanildi. Natijada Bobur Movarounnahrni butunlay tark etishga majbur bo‘ldi [7, B. 237– 241].

Shunga qaramay, Bobur faoliyatining keyingi bosqichida harbiy diplomatiyaning muhim usuli – “**harbiy texnologiyalar transferi**” muvaffaqiyatli qo‘llanilganligi kuzatilgan. U Usmonlilar imperiyasi bilan harbiy-diplomatik aloqalarni o‘rnatib, turk harbiy mutaxassislari ustod Ali Quli va Mustafo Rumiylarni o‘z armiyasi saflariga jalb etgan. Ushbu instruktorlar ko‘magida Bobur qo‘shinida artilleriya (to‘plar) va o‘qotar qurollardan foydalanish, shuningdek, Usmonlilarning mashhur “aravalar zanjiri” (to‘siq yaratish) taktikasi joriy etildi [8, B. 208]. Bu yangi jangovar taktika 1526 yilgi Panipat jangida Bobur armiyasiga (taxminan 12 ming nafar) son jihatdan bir necha barobar ustun bo‘lgan Dehli sultoni Ibrohim Lodiy qo‘shinlarini (40-50 ming nafar jangchi, 700-1000 ga yaqin jangovar fillar) mag‘lub etishda hal qiluvchi omil bo‘ldi.

“Boburnoma” asarining tahliliga ko‘ra, Bobur Hindiston yurishlari davomida harbiy taktika bilan “diplomatik manyovrlar” ni (mahalliy rajalar, afg‘on dala qo‘mondonlari va Dehli sultonligi elitasi bilan uzluksiz diplomatik yozishmalarni amalga oshirgan, ularni o‘z tomoniga og‘dirish yoki ular o‘rtasidagi keskinliklardan foydalanish) parallel ravishda qo‘llaganligi bois ko‘plab g‘alabalarga urushsiz, diplomatik muzokaralar orqali

erishgan [8, B. 215].

Tadqiqot natijalarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tahlil qilingan davrlarda harbiy diplomatiya sohasida to‘plangan amaliy tajribalar mustaqil O‘zbekiston harbiy diplomatiyasini rivojlantirishda muhim omil bo‘lmoqda.

Sohibqironning “urushdan oldin diplomatik muhit yaratish” konsepsiyasi hozirgi kundagi strategik rejalashtirish va preventiv diplomatiya qoidalariga to‘liq mos keladi.

O‘z armiyasini zamonaviy qurol-yaroqlar bilan ta’minlash maqsadida olib borilgan Boburning harbiy texnologiyalar transferi zamonaviy bosqichda ham O‘zbekiston hukumati tomonidan davom ettirilmoqda.

ILMIY YANGILIKLAR

1. Tadqiqotda ilk marotaba Amir Temur, Temuriylar va Bobur davlatchiligining harbiy-diplomatik faoliyati yaxlit tarixiy tizim sifatida tahlil qilindi.

2. O‘rganilgan davrdagi harbiy diplomatiya amaliyoti zamonaviy O‘zbekiston harbiy attashe institutining tarixiy ildizlari sifatida ilmiy asoslantirildi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hududida harbiy diplomatiya an’analari ko‘p asrlik milliy davlatchilik taraqqiyoti, geostrategik joylashuv va xavfsizlik ehtiyojlari mahsulidir. Amir Temur davrida shakllangan keng miqyosdagi harbiy-diplomatik yondashuvlar, jumladan, “urushdan oldin diplomatik muhitni shakllantirish va raqibni harbiy koalitsiyalar orqali yakkalash” strategiyasi, Bobur davridagi “harbiy texnologiyalar transferi” tajribasi tarixiy nuqtai nazardan yuksak harbiy-diplomatik san’at namunalari sifatida baholanadi.

Yuqorida keltirilgan davrlarda to‘plangan amaliy tajriba mustaqil O‘zbekiston harbiy diplomatiyasini shakllantirishda muhim omil bo‘lganligi ilmiy jihatdan asoslantirilgan yondashuvdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmedov B.A. Amir Temur. Toshkent. 1996.

2. شورای مجلس اسناد مرکز و موزه کتابخانه، تهران: نوایی عبدالحسین و صادق میرمحمد سعید تصحیح به / ظفرنامه. یزدی علی شرفالدین. ۱۳۸۷ اسلامی، جلد ۲ – ص. ۱۹۴۶ –.

(Sharaf al-Din Ali Yazdi. Zafarnāma / nashrga tayyorlovchilar: Sa’id Mir Muhammad Sodiq va Abd al-Husayn Navoiy. – Tehron: Majlis Sho‘royi Islomiy kutubxonasi, muzeyi va hujjatlar markazi, 1387 h.sh. – 2 jild. – 1946 b.)

3. Clavijo R.G. Embassy to Tamerlane, 1403–1406 / translated by Guy Le Strange. London: Routledge, 2009.

4. Soucek S. A History of Inner Asia. Cambridge. 2000.

5. Rossabi M. China and Inner Asia: From 1368 to the Present Day // The Cambridge History of China. Vol. 7. – Cambridge: Cambridge University Press, 1988.

6. Ghiyāth al-Dīn Naqqāsh. Report to Mirza Baysunghur on the Timurid Legation to the Ming Court at Peking / translated by W.M. Thackston // A Century of Princes: Sources on Timurid History and Art. Cambridge, MA: Aga Khan Program for Islamic Architecture. 1989.

7. Rahimov Q. Temuriylar va Boburiylar davri tarixi. Toshkent. 2018.

8. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent. 1989.